



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 92-101 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

XORAZM VILOYATI IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINI RIVOJLANISHI VA JORIY HOLATI



Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

To'rtko'l fakulteti, assistent-o'qituvchi

Urganch davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyati iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining ahamiyati va ularning hozirgi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqqa iqtisodiyotining tarmoqlararo muvozanatini mustahkamlash, sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va energiya samaradorligini oshirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishga erishish yo'llari ko'rsatib berilgan. Maqolada xalqaro manbalar, rasmiy statistik ma'lumotlar hamda Xorazm viloyati iqtisodiyotining so'nggi yillardagi rivojlanish ko'rsatkichlari asosida sanoat tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, viloyatda energetika, to'qimachilik, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarining o'sishi mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilish mintaqaviy iqtisodiy o'sishning yangi bosqichiga zamin yaratmoqda.

Kalit so'zlar: sanoat tarkibiy o'zgarishlari, iqtisodiy barqarorlik, mintaqaviy rivojlanish, raqamli transformatsiya, energiya samaradorligi, Xorazm viloyati.

Аннотация. В статье рассматриваются ключевые факторы и направления структурных изменений в промышленности Хорезмской области, способствующие обеспечению устойчивого экономического развития региона. В работе анализируется текущее состояние промышленного производства, выявлены основные тенденции и проблемы, связанные с модернизацией производственных мощностей и внедрением энергосберегающих технологий. На основе официальных статистических данных и международных источников раскрывается влияние структурных преобразований на региональную экономическую стабильность. Результаты исследования показывают, что рост доли энергетического, текстильного и пищевого секторов в промышленности способствует формированию новой модели устойчивого развития региона. Особое внимание уделено роли цифровизации и внедрению возобновляемых источников энергии в формировании промышленной политики Хорезмской области.

Ключевые слова: структурные изменения промышленности, экономическая устойчивость, региональное развитие, цифровизация, энергоэффективность, Хорезмская область.

Abstract. This article analyzes the role and current state of industrial structural transformations in ensuring the economic stability of the Khorezm region. The study identifies key

factors affecting the diversification of industrial sectors, the modernization of production infrastructure, and the implementation of energy-efficient technologies. Based on official statistics and international research reports, the paper examines the dynamics of industrial growth in energy, textile, food, and construction material sectors and their contribution to regional economic resilience. The findings indicate that structural shifts in the industrial composition, along with digitalization and the use of renewable energy, are creating a solid foundation for sustainable regional development in Uzbekistan. The study highlights that industrial diversification and innovation-driven growth can significantly enhance the region's competitiveness and ensure long-term stability.

Keywords: industrial structural transformation, economic stability, regional development, digitalization, energy efficiency, Khorezm region.

KIRISH

Hozirgi davrda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Global iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, texnologik modernizatsiya, raqamli transformatsiya jarayonlari va iqlim o'zgarishlari sharoitida har bir mintaqaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash uchun tarkibiy o'zgarishlar jarayonini chuqur tahlil qilish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, Xorazm viloyati iqtisodiyoti misolida sanoat tarmoqlarining tarkibiy o'zgarishlarini o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur hududda sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari, tarmoqlararo muvozanat, resurslardan foydalanish samaradorligi va ishlab chiqarish infratuzilmasining yangilanish darajasi mintaqa iqtisodiy barqarorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishlaridan biri sifatida sanoatning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini oshirish belgilab olingan. Prezidentimizning PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"¹ va PF-158-sonli "Yangi O'zbekiston – 2030 strategiyasi"²da qayd etilganidek, mintaqalar iqtisodiy salohiyatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali barqaror sanoat o'sishiga erishish – mamlakat rivojlanishining ustuvor vazifalaridan biri sifatida ko'rsatilgan. Aynan shu jihatlar Xorazm viloyati misolida yanada yaqqol namoyon bo'lib, so'nggi yillarda viloyat sanoatining hajmi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi, innovatsion faoliyatni kuchaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi. Xorazm viloyatida ham aynan shu yo'nalishlarda aniq ijobiy siljishlar kuzatilmoqda: so'nggi besh yil ichida ishlab chiqarish hajmi 1,7 baravar oshgan, ishlab chiqarishning energetik samaradorligi 8 foizga yaxshilangan va qayta ishlash tarmoqlarining ulushi 28,3 foizgacha ko'tarilgan.³

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son Farmon "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – Lex.uz, 2022.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-158-son Farmon "O'zbekiston 2030 strategiyasi to'g'risida". – Lex.uz, 2023.

³ E3S Web of Conferences. Model and Methodology of Diversification and Modernization Scenario in Khorezm Region. – Vol. 403. – E3S Web Conf., 2023. – DOI: 10.1051/e3sconf/202340301001.

Viloyat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati shundaki, u tarixan agrar yo'nalishda shakllangan bo'lsa-da, bugungi kunda sanoat tarmoqlari iqtisodiy o'sishning bosh harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Jumladan, Xorazm viloyati iqtisodiyotining o'sish nuqtalari tahliliy hisobotida qayd etilishicha, mintaqada "o'sish nuqtalari" sifatida to'qimachilik, elektrotexnika, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati ajralib turadi. Bu tarmoqlar bir tomondan qishloq xo'jaligi bilan mustahkam bog'langan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xorazm viloyati iqtisodiyotining joriy holati shuni ko'rsatadiki, hudud sanoat tarmoqlarida sifat jihatdan yangi bosqich kuzatilmoqda. "Ishlab chiqarish sanoatining tarkibi" nomli hududiy iqtisodiy hisobotda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2020-2024-yillar davomida sanoat ishlab chiqarish hajmi 16,8 trillion so'mdan 28,6 trillion so'mga yetgan, bu esa 70 foizga yaqin o'sish demakdir. Shu davrda sanoatning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 26,4 foizdan 33,1 foizgacha ko'tarilgan, bu mintaqaviy iqtisodiy tuzilmaning barqaror o'sayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, O'zbekistonning g'arbiy hududlarida, xususan Xorazm viloyatida sanoatning tarmoqlararo integratsiyasi barqaror iqtisodiy o'sish uchun eng muhim mexanizmdir. Bunda iqtisodiyotning "resursga asoslangan" modelidan "innovatsiyaga asoslangan" modelga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni davom etmoqda. Xorazm viloyatida bu jarayon o'z aksini topib, "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasi, kichik sanoat zonalari, hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan ishlab chiqarish quvvatlari faoliyatida yaqqol ko'rinmoqda.⁴

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining o'rni ko'p qirrali bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni birlashtiradi. Bunda sanoat tarmoqlari o'rtasida texnologik kooperatsiya, yangi ishlab chiqarish zanjirlarining shakllanishi, resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish, mehnat unumdorligini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirish jarayonlari o'zaro uyg'unlashgan holda kechmoqda. Shu bois, Xorazm viloyatida olib borilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniqlash, mintaqaviy siyosatda sanoat rivojlanishining optimal modelini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida qaralmoqda.

Xorazm viloyatining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, ishchi kuchi salohiyati va transport-logistika imkoniyatlari uni O'zbekiston iqtisodiy xaritasida muhim strategik hududga aylantirgan. Shu jihatdan, viloyatda olib borilayotgan sanoat siyosatining natijalari nafaqat mintaqaviy, balki respublika iqtisodiy barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Rivojlanishning ushbu bosqichida asosiy e'tibor ishlab chiqarish hajmini oshirishdan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligini, energiya tejamkorligini va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilmoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbliigi shundaki, u Xorazm viloyatida kechayotgan sanoat tarkibiy o'zgarishlarining hozirgi bosqichini ilmiy asosda tahlil qilib, ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'sir mexanizmini ochib beradi. Shu bilan birga, maqolada hududiy iqtisodiy siyosatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan takomillashtirish yo'nalishlari, sanoat

⁴ World Economics & Finance Bulletin. Global Experience in Improving the Organization and Management of Small Industrial Zones. – Vol. 10. – No. 2. – 2025. – P. 55–68.

rivojlanishining ustuvor tarmoqlari hamda ularni modernizatsiya qilishning samarali usullari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Sanoat tarkibiy o'zgarishlarini o'rganish iqtisodiy fanlarda markaziy masalalardan biri bo'lib, mintaqa iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishdagi dastlabki nazariy asoslar Simon Kuznets tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u iqtisodiy o'sish jarayonida tarmoqlararo resurslarning qayta taqsimlanishini iqtisodiy taraqqiyotning asosiy mexanizmi sifatida izohlagan. Kuznetsning fikricha, iqtisodiy o'sish faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan emas, balki tarmoqlar o'rtasidagi mehnat, kapital va texnologiyalar oqimining samarali tashkil etilishi bilan belgilanadi.⁵ Ushbu yondashuv keyinchalik M. Porter tomonidan "milliy raqobat ustunligi" nazariyasi orqali kengaytirilgan bo'lib, u sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini innovatsiyalar, infratuzilma, institutlar va mahalliy iqtisodiy muhit bilan bog'lab tahlil qilgan.⁶

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sanoat tarkibidagi o'zgarishlar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki mintaqalarda iqtisodiy muvozanatni mustahkamlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat tarkibining diversifikatsiyasi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarining paydo bo'lishi va eksport hajmining kengayishi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.⁷ Raqamli transformatsiya, yashil energetika va innovatsion ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda strategik rol o'ynaydi.

O'zbekiston iqtisodiyoti hozirgi bosqichda resursga asoslangan modeldan innovatsion va texnologik transformatsiya bosqichiga o'tmoqda. Shu jarayonda mintaqalarda, xususan Xorazm viloyatida, sanoat tarkibini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omilga aylangan.⁸

O'zbekistonlik iqtisodchilar ham bu masalaga katta e'tibor qaratganlar. Bu borada mintaqaviy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash uchun sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarishning ichki resurslarini safarbar etish va hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish zarurligini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida qayd etilishicha, tarkibiy o'zgarishlar faqat texnologik modernizatsiya emas, balki iqtisodiy resurslarning qayta taqsimlanishi, yangi tarmoqlar paydo bo'lishi va mehnat bozorining moslashuvchanligi orqali ham amalga oshadi.⁹

Sanoat tarmoqlarining hududiy rivojlanishdagi o'rni bevosita "industrial diversification" va "green transformation" tushunchalari bilan bog'lanadi. Mazkur tadqiqotda, O'zbekistonning g'arbiy viloyatlarida, jumladan Xorazm viloyatida, sanoatning yangi tarmoqlari (elektrotexnika, qurilish materiallari, oziq-ovqat qayta ishlash) iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy "o'sish nuqtalari" sifatida qayd etilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish infratuzilmasining modernizatsiyasi, qayta tiklanuvchi

⁵ Kuznets, S. Modern Economic Growth. – New Haven: Yale University Press, 1966. – 284 p.

⁶ Porter, M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.

⁷ UNIDO. Industrial Development Report 2024: Transforming Industrial Structures for Sustainable Growth. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024. – 176 p.

⁸ World Bank. Uzbekistan: Industrial Competitiveness and Energy Efficiency. – Washington, D.C.: The World Bank, 2023. – 118 p.

⁹ Voxidov, A., Xasanov, M., Yusupov, B. Hududiy iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish. – Toshkent: Fan, 2022. – 196 b.

energiya manbalarini ishlab chiqarish jarayoniga kiritish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sanoat siyosatining yangi bosqichini belgilaydi.

Xorazm viloyati sanoatida 2020-2024-yillar davomida tarkibiy o'zgarishlarning chuqurlashgani, ishlab chiqarish hajmining 70 foizga o'sgani, energiya samaradorligining oshgani va qayta ishlash tarmoqlarining ulushi ortgani ko'rsatilgan. Shuningdek, viloyat iqtisodiyoti endilikda agrar bazadan ko'ra, qayta ishlash va ishlab chiqarish klasterlariga tayanmoqda. Bu esa, mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda sanoat tarmoqlarining yangi nisbati va o'zaro bog'liqligini yuzaga keltirmoqda.

Boshqa tomondan, iqtisodiy adabiyotlarda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatga ta'siri ham keng o'rganilgan. Sanoat tarmoqlarining modernizatsiyasi iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda bandlik, aholi daromadlari va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Ushbu fikrlar O'zbekiston sharoitida ham dolzarb bo'lib, Xorazm viloyatida sanoat o'sishining ijtimoiy barqarorlik va bandlik siyosatiga ta'siri so'nggi yillarda yaqqol sezilmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sanoat tarkibiy o'zgarishlarini o'rganish - bu faqat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini tahlil qilish emas, balki mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning barqaror ishlashini ta'minlovchi murakkab mexanizmlarni anglashdir. Xorazm viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi, ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish va qayta ishlash quvvatlarini oshirish mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida shakllanmoqda. Shu bois, ushbu masalani chuqur o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyatining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoat tarkibiy o'zgarishlarining ta'sirini o'rganish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlilning turli metodlari - analiz va sintez, taqqoslama tahlil, statistik guruhlash, ekonometrik modelashtirish, ssenariy usuli, hamda ekspert baholash usullari uyg'unlashtirildi. Mazkur metodlar O'zbekistonning mintaqaviy iqtisodiy sharoitiga mos ravishda moslashtirildi va Xorazm viloyati bo'yicha real statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotning ma'lumotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining 2015–2024-yillardagi ma'lumotlari, Xorazm viloyati hududiy statistika boshqarmasi, "World Economics & Finance Bulletin" (2025) jurnalining Xorazm viloyatidagi kichik sanoat zonalari tahliliga oid maqolalari asosida shakllantirildi.

Tadqiqotda Xorazm viloyatining sanoat tarmoqlari rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida ekonometrik modeldan foydalanildi. Model "inertial" va "modernizatsiya" ssenariylari asosida qurilib, har bir ssenariy mintaqaning o'z ichki moliyaviy imkoniyatlariga, investitsiya oqimlariga, energiya resurslaridan foydalanish darajasiga va iqtisodiy siyosatning chuqurligiga qarab baholandi. Modernizatsiya ssenariysi eng yuqori samaradorlikni namoyon etadi, chunki u yangi texnologiyalarni joriy etish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va innovatsion loyihalarga kapital qo'yilmalarning ko'payishini nazarda tutadi.

Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida sanoat diversifikatsiyasi darajasini baholash uchun ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim taklif etilgan uchta asosiy yo'nalish - tarmoqlararo diversifikatsiya, texnologik yo'naltirilganlik va geografik yo'nalish - mezonlariga asoslanadi. Har bir yo'nalish uchun alohida ko'rsatkichlar majmui belgilangan: ishlab chiqarish hajmi, asosiy vositalar fondining qaytimi, investitsiya hajmi, eksport ulushi, innovatsion faoliyat ko'rsatkichi va mehnat unumdorligi. Ushbu indikatorlar yordamida Xorazm viloyati sanoatining strukturaviy dinamikasi va barqaror rivojlanish potentsiali baholandi

Tadqiqotning amaliy bosqichida ekonometrik tahlil orqali sanoat ishlab chiqarish hajmi (Y), asosiy kapital qo'yilmalari (K), energetik resurslardan foydalanish samaradorligi (E), hamda bandlik ko'rsatkichi (L) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlanib, quyidagi umumlashtirilgan model asosida tahlil qilindi:

$$Y = \alpha + \beta_1 K + \beta_2 E + \beta_3 L + \varepsilon$$

Bu model yordamida Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmini oshirishda investitsion faollik va energiya samaradorligining ta'siri aniqlanadi. Xorazm viloyatida sanoatning modernizatsiya darajasi 0,9% asosiy fond ulushi bilan mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichga teng bo'lsa-da, qayta jihozlash va texnik rekonstruksiya bo'yicha o'sish sur'atlari yuqori - Namangan, Andijon va Samarqand viloyatlariga teng darajada qayd etilgan

Tahlilda, shuningdek, investitsion, innovatsion, infratuzilmaviy va mehnat omillari guruhlab tahlil qilindi. Har bir omilning o'lchov birliklari aniqlandi: innovatsion texnologiyalar ulushi, tarmoqdagi ilmiy tadqiqotlar soni, yo'l va transport tarmog'i zichligi, mehnat resurslarining malaka tarkibi va ishlab chiqarish korxonalari joylashuvi. Bu ko'rsatkichlar orqali har bir tarmoqning iqtisodiy faollik darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi baholandi. Tadqiqotning yana bir muhim jihati — sotsial-iqtisodiy ta'sirlarni baholashdir. Bunda sanoat tarmoqlaridagi o'sishning bandlik, aholi daromadlari, eksport salohiyati va hududlararo farqlarga ta'siri aniqlanadi. Kichik sanoat zonalari (SIZ) va erkin iqtisodiy zonalar (SEZ) faoliyati Xorazm viloyati iqtisodiyotida yangi ish o'rinlarini yaratish, ishlab chiqarishning klaster asosida tashkil etilishi va resurslardan samarali foydalanish orqali mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlamoqda. Metodologik jihatdan tadqiqot empirik-statistik ma'lumotlar tahlili, tizimli yondashuv va normativ-huquqiy asoslarni solishtirma o'rganishga tayanadi. Tadqiqot jarayonida ularning sanoat tarmoqlari rivojlanishiga ta'siri aniqlangan. Shuningdek, xalqaro tajriba xususan, Xitoy, Koreya va Turkiyaning industrial transformatsiya modellari bilan taqqoslama tahlil o'tkazilib, O'zbekiston sharoitiga mos takliflar ishlab chiqilgan.

Natijada, ishlab chiqilgan metodologik yondashuv Xorazm viloyatining sanoat tarmoqlari rivojlanishiga kompleks baho berish, o'sish rezervlarini aniqlash va barqarorlik strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish va sanoat transformatsiyasini boshqarish jarayonida amaliy ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar

Tahlil jarayonida Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarining 2020-2024-yillardagi o'sish dinamikasi, tarkibiy o'zgarishlar va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri chuqur o'rganildi.

Xorazm viloyatida 2020-2024-yillar davomida sanoat ishlab chiqarish hajmi 16,8 trillion soʻmdan 28,6 trillion soʻmga yetgan boʻlib, bu 70 foizlik oʻsishni anglatadi. Ushbu davrda qayta ishlash sanoati ulushi 26,4 foizdan 33,1 foizgacha koʻtarilgan, energiya ishlab chiqarish tarmogʻida esa samaradorlik 8,3 foizga oshgan. Viloyatning umumiy sanoat hajmidagi asosiy tarmoqlar: toʻqimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik va elektrotexnika sohalari. Bularning ichida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,9 baravar oshgani kuzatilgan.

Tahlil shuni koʻrsatadiki, Xorazm viloyatining iqtisodiy barqarorligi koʻp jihatdan sanoatning tarmoqlararo muvozanatiga va ishlab chiqarish diversifikatsiyasi darajasiga bogʻliq. Hududda faoliyat yuritayotgan 1,4 mingdan ortiq sanoat subʼyektlarining 68 foizi kichik ishlab chiqarish korxonalariga toʻgʻri keladi, bu esa mintaqaviy bandlik siyosatida muhim rol oʻynaydi. E3S Conference (2023) maʼlumotlariga koʻra, viloyatda yangi texnologik liniyalar joriy etilishi hisobiga mehnat unumdorligi 12 foizga oshgan, energiya sarfi esa 5 foizga qisqargan.

Viloyat iqtisodiyotining “oʻsish nuqtalari” sifatida Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi, Urgench shahar sanoat klasteri va Gurlan–Yangibozor–Shovot sanoat yoʻlagi shakllanmoqda. Bu hududlarda sanoatning zamonaviy infratuzilmasi va logistika tizimi rivojlanib, ishlab chiqaruvchilar uchun eksport imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, “Hazorasp” EIZda 2024-yilda 38 ta yangi loyiha ishga tushirilib, 4,1 mingta yangi ish oʻrni yaratildi, ishlab chiqarish hajmi 2,3 baravar oshdi.

Sanoat tarmoqlarining ichki tarkibiy oʻzgarishlari ham sezilarli: 2020-yilda eng katta ulush (41%) elektrotexnika va toʻqimachilik tarmoqlariga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2024-yilga kelib bu ulush 47 foizni tashkil etdi. Qurilish materiallari ishlab chiqarishining ulushi 9,7 foizdan 12,4 foizgacha oʻsdi, oziq-ovqat sanoatida esa modernizatsiya hisobiga ishlab chiqarish hajmi 1,6 baravar ortdi.

Tahlil natijalariga koʻra, Xorazm viloyatida iqtisodiy barqarorlik indeksi 2020-yildagi 0,54 koeffitsientdan 2024-yilda 0,72 gacha koʻtarilgan, bu esa iqtisodiyotning transformatsiya bosqichida muhim natijadir. Shuningdek, eksport salohiyati 1,5 baravar oshib, 2024-yilda 186,3 million AQSH dollarini tashkil etgan. Bu jarayon sanoat tarmoqlarining ichki modernizatsiya darajasi va raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish bilan bevosita bogʻliq.

1-jadval

Xorazm viloyati sanoatining asosiy koʻrsatkichlari¹⁰

Koʻrsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Sanoat ishlab chiqarish hajmi, trln soʻm	16,8	18,9	22,7	25,1	28,6
Qayta ishlash tarmogʻi ulushi, %	26,4	28,7	30,1	31,2	33,1
Energiya samaradorligi indeksi	1,00	1,04	1,07	1,10	1,13
Mehnat unumdorligi, mln soʻm/ishchi	38,4	41,2	44,8	47,1	50,3
Eksport hajmi, mln AQSH dollari	124,1	138,6	152,7	169,4	186,3

Jadval tahlilidan koʻrinadiki, Xorazm viloyati iqtisodiy barqarorligiga sanoat tarmoqlari oʻrtasidagi diversifikatsiya va modernizatsiya jarayonlari ijobiy taʼsir

¹⁰ Xorazm viloyati iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi. – Urganch: Statistika boshqarmasi hisobotlari toʻplami, 2024. – 67 b.

ko'rsatmoqda. Aholining daromadlari va bandlik ko'rsatkichlari ham bu davrda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etgan. Masalan, sanoatdagi o'rtacha ish haqi 2020-2024-yillar oralig'ida 3,1 baravar oshgan bo'lsa, ishlab chiqarishdagi mehnat samaradorligi 31 foizga ko'tarilgan.

Shuningdek, tahlil davomida aniqlanishicha, Xorazm viloyatida iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlari - investitsion faollik, innovatsion faoliyat, raqamli texnologiyalarni joriy etish va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish siyosati bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu omillar birgalikda mintaqaviy iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlab, Xorazm viloyatini O'zbekistonning eng tez rivojlanayotgan sanoat hududlaridan biriga aylantirgan.

Tahlil yakunlariga ko'ra, sanoat tarmoqlari ichki tarkibining modernizatsiyasi, energiya samaradorligini oshirish, eksport hajmini kengaytirish va innovatsion loyihalarga sarmoya kiritish Xorazm viloyatining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlovchi asosiy yo'nalishlar sifatida belgilandi. Ushbu omillar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki hududning ijtimoiy rivojlanishiga, aholi bandligiga va daromadlar o'sishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat tarmoqlarida kechayotgan tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy barqarorlikning asosiy drayveriga aylanmoqda. Mintaqaning iqtisodiy o'sish sur'atlari nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki tarmoqlararo muvozanat, resurslardan samarali foydalanish va raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan bog'liq. Sanoat tarmoqlari o'rtasidagi texnologik integratsiya mintaqaviy iqtisodiy tizimning mustahkamlanishiga bevosita ta'sir etmoqda.

Xorazm viloyatining hozirgi sanoat rivojlanish modeli o'zining tarixiy agrar yo'nalishidan asta-sekin texnologik ishlab chiqarish bosqichiga o'tmoqda. Bu jarayon ishlab chiqarish hajmining o'sishidan tashqari, tarmoqlar o'rtasida kapital va mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi bilan izohlanadi. Shu bois viloyat iqtisodiyoti tarkibida qayta ishlash tarmoqlari ulushining ortishi, energetik samaradorlikning oshishi va yangi ishlab chiqarish klasterlarining shakllanishi barqaror iqtisodiy tizimni yuzaga keltirmoqda. Biroq, bu o'zgarishlar bilan birga bir qator muammolar ham mavjud - xususan, ishlab chiqarishdagi texnik asbob-uskunalarining eskirganligi, malakali ishchi kuchi tanqisligi va energiya resurslarining yetarli emasligi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, Xorazm viloyati iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda sanoatning tarmoqlararo integratsiyasi va diversifikatsiya darajasi hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Tadqiqot natijalari mintaqaviy ishlab chiqarish diversifikatsiyasi iqtisodiy shoklarga bardoshlilikni oshiradi va bandlik darajasini barqarorlashtiradi. Xalqaro tajriba (xususan, Koreya, Turkiya va Xitoydagi industrial transformatsiya modellarida) shuni ko'rsatadiki, sanoat tarkibidagi o'zgarishlar iqtisodiy o'sishni tezlashtirish bilan birga, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi.

Xorazm viloyatida ham so'nggi yillarda energetika, qurilish materiallari, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati sohalarining o'sishi ijobiy iqtisodiy muvozanatni yuzaga keltirmoqda. Bu tarmoqlarda ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiyasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va raqamli texnologiyalarni joriy

etish jarayonlari jadallashmoqda. Shunga qaramay, viloyatda energiya ta'minoti va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi ishlab chiqarishning to'liq hajmda barqarorlashuviga to'sqinlik qilmoqda.

Kichik sanoat zonalarini faoliyati mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular mahalliy resurslardan samarali foydalanish, ish o'rinlari yaratish va innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish imkonini beradi. Hazorasp erkin iqtisodiy zonasi misolida bu jarayon ayniqsa yaqqol ko'rinadi - yangi ishlab chiqarish tarmoqlari paydo bo'lishi, eksport hajmining ortishi va sanoatning diversifikatsiyasi iqtisodiy tizimni mustahkamlamoqda.

Boshqa tomondan, Xorazm viloyatining iqtisodiy transformatsiyasida ekologik barqarorlik omili ham muhim ahamiyatga ega. Mintaqada ishlab chiqarish chiqindilarining kamayishi, energiya tejamkor texnologiyalarning qo'llanilishi va "yashil" sanoat siyosati tamoyillarining joriy etilishi iqtisodiy o'sish bilan ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish imkonini yaratmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati iqtisodiyotida sanoat tarkibiy o'zgarishlari nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini, balki butun mintaqaviy iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlovchi strategik omilga aylangan. Bu jarayonni ilmiy asosda boshqarish va xorijiy tajriba elementlarini uyg'unlashtirish mintaqada barqaror sanoat siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyati sanoat tarkibiy o'zgarishlari mintaqaviy iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Hudud sanoatining tarmoqlararo diversifikatsiyasi, kichik sanoat zonalarini faoliyati va ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiyasi natijasida viloyat yalpi hududiy mahsulotida sanoat ulushi barqaror o'smoqda - 2030-yilga kelib 21 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

Modernizatsiya ssenariysi Xorazm viloyati uchun eng maqbul yo'nalish hisoblanadi. Bu ssenariy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tizimli o'zgarishlarni, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va qo'shma korxonalar sonining ko'payishini ta'minlaydi. Eng muhim jihat shundaki, ushbu yondashuv mehnat resurslarini faolroq jalb etish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va kapital samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Sanoatning mintaqaviy rivojlanishida tumanlar kesimida ixtisoslashuv alohida ahamiyatga ega. Xususan, Xazarasp va Tuproqqal'a - mashinasozlik, Bag'at va Urganch - un mahsulotlari, Gurlan va Shovot - to'qimachilik hamda meva-sabzavot qayta ishlash yo'nalishida rivojlanmoqda. Bu hududiy ixtisoslashuv ishlab chiqarish resurslarining oqilona taqsimlanishini va eksport salohiyatining oshirishini ta'minlaydi.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti uchun kichik sanoat zonalarining roli tobora ortib bormoqda. Ular mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, bandlikni oshirish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ammo tadqiqot natijalarida infratuzilma, moliyalashtirish va boshqaruvdagi kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari surilgan:

- kichik sanoat zonalarida klaster asosida ishlab chiqarishni tashkil etish;
- umumiy xizmat ko'rsatish markazlarini barpo etish;

- investorlarni rag'batlantirish va moliyaviy imtiyozlar tizimini kengaytirish;
- Xitoy tajribasi asosida zonalarini ijtimoiy infratuzilma bilan birgalikda rejalashtirish

Bundan tashqari, hududlararo hamkorlik va "growth points" konsepsiyasi asosida tarmoqlarni rivojlantirish viloyat sanoatini raqobatbardosh qilishning muhim omili sifatida e'tirof etildi. Urganch, Xiva, Bag'at va Gurlan singari markazlar yangi ishlab chiqarish nuqtalariga aylanishi uchun davlat tomonidan investitsion, soliq va infratuzilma qo'llab-quvvatlovi zarur

Umuman olganda, Xorazm viloyatida sanoat tarkibiy o'zgarishlarini ilmiy asosda boshqarish, modernizatsiya jarayonlarini hududiy resurslarga moslashtirish va xalqaro tajribani integratsiya qilish mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi. Shu yo'nalishdagi tizimli yondashuv O'zbekistonning "Yangi taraqqiyot strategiyasi – 2030" maqsadlariga hamohang natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuznets, S. Modern Economic Growth. – New Haven: Yale University Press, 1966. – 284 p.
2. Porter, M. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
3. UNIDO. Industrial Development Report 2024: Transforming Industrial Structures for Sustainable Growth. – Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024. – 176 p.
4. World Bank. Uzbekistan: Industrial Competitiveness and Energy Efficiency. – Washington, D.C.: The World Bank, 2023. – 118 p.
5. Voxidov, A., Xasanov, M., Yusupov, B. Hududiy iqtisodiyot va sanoatni diversifikatsiya qilish. – Toshkent: Fan, 2022. – 196 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-son Farmon "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida". – Lex.uz, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-158-son Farmon "O'zbekiston 2030 strategiyasi to'g'risida". – Lex.uz, 2023.
8. World Economics & Finance Bulletin. Global Experience in Improving the Organization and Management of Small Industrial Zones. – Vol. 10. – No. 2. – 2025. – P. 55–68.
9. Xorazm viloyati iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi. – Urganch: Statistika boshqarmasi hisobotlari to'plami, 2024. – 67 b.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

